


Xorazm viloyati demografik holati (2000-2017 yillar davomida)

I. Xorazm viloyati hududi bo'yicha ma'lumot.

Xorazm viloyati 1938 yilning 15 yanvarida tashkil topgan bo'lib maydoni 6,05 ming kv.km. O'z o'rnida respublikada maydoni jihatdan 11o'rinni egallaydi (1-rasm).



Tashkil Topgan yili

- | | | |
|--------------------------------|-------------------------------|-----------------------------|
| ■ Urganch sh. 1929 yil | ■ Bog'att. 07.12.1970 yil | ■ Gurlan t. 29.09.1926 yil |
| ■ Qo'shko'pirt. 17.02.1936 yil | ■ Urganch t. 29.09.1926 yil | ■ Xazarospt. 19.09.1926 yil |
| ■ Xonqat t. 26.12.1973 yil | ■ Xiva t. 29.09.1926 yil | ■ Shovot t. 29.09.1926 yil |
| ■ Yangiariqt. 29.09.1926 yil | ■ Yangibozort. 23.11.1981 yil | |


I-rasm. Xorazm viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

II. Doimiy aholi soni.


Xorazm viloyatida doimiy aholisi soni 2017 yil 1 yanvar holatiga 1,7 mln. kishini tashkil etib, 2001 yil boshiga nisbatan 0,4 ming. kishiga, ya`ni 31,8 foizga o`sgan (1-jadval).

<i>1-jadval</i>						
Xorazm viloyati doimiy aholisi soni to`g`risida ma`lumot						
(yil boshiga; ming kishi)						
	2001 yil		2017 yil		2017 yilning 2001 yilga nisbatan farqi	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	+,-	%
Jami aholi soni	1347.7	100	1776.7	100	429.0	131.8
<i>shu jumladan:</i>						
erkaklar	669.4	49.7	887.6	50.0	218.2	132,6
ayollar	678.3	50.3	889.1	50.0	210.8	131,1

2017 yil 1 yanvar holatiga




2- rasm. 2017 yil holatiga doimiy aholisi soni to`g`risida ma`lumot
(yil boshiga)



3-rasm. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni (ming kishi)

Mazkur yillarda viloyatda aholisining joylashuvi bo`yicha tarkibida ham sezilarli o`zgarishlar kuzatilgan, ya`ni 2001 yilda shahar aholisining jami aholi sonidagi ulushi – 23,5 foizni tashkil etgan bo`lsa, ushbu ko`rsatkich 2006 yilda – 22,2 foizni, 2011 yilda – 33,7 foizni, 2016 yilda – 32,4 foizni, 2017 yil 1 yanvar holatiga kelib esa – 32,2 foizni tashkil etdi (4-rasm).




4-rasm. Xorazm viloyati doimiy aholisining joylashuvi bo`yicha taqsimlanishi (foizda)

Xorazm viloyati aholisining 2001-2017 yillarda yosh tarkibida ham sezilarli oʻzgarishlar kuzatilgan.

Jumladan, 2001 yilda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar (0-15 yoshdagilar) ulushi 40,4 foizni, mehnatga layoqatli yoshdagilar (erkaklar 16-59 yosh, ayollar 16-54 yosh) 53,2 foizni, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (erkaklar 60 yosh va undan katta, ayollar 55 yosh va undan katta) 6,4 foizni tashkil etgan.

2017 yil 1 yanvar holatiga mazkur koʻrsatkichlar mos ravishda 30,9 foiz, 61,0 foiz va 8,1 foizni tashkil etgan (2-jadval).

<i>2-jadval</i>						
Xorazm viloyati doimiy aholisining yosh tarkibi toʻgʻrisida maʼlumot						
(yil boshiga; ming kishi)						
	2001 y		2017 y		2017 yilning 2001 yilga nisbatan farqi	
	soni	ulushi, %	soni	soni	soni	ulushi, %
Jami aholi soni	1347,7	100	1776,7	100	429,0	131,8
shu jumladan:						
mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar	544,6	40,4	548,6	30,9	4,0	100,7
mehnatga layoqatli yoshdagilar	716,6	53,2	1083,2	61,0	366,6	151,2
mehnatga layoqatli yoshdan kattalar	86,5	6,4	144,9	8,1	58,4	167,5



5-rasm 2017 yil doimiy aholisining yosh tarkibi toʻgʻrisida maʼlumot (foizda;)


Xorazm viloyati bo'yicha 2001 yilda aholining o'rtacha yoshi 23,7 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib bu ko'rsatkich 27,8 yoshni tashkil etmoqda, ya'ni viloyat aholisining o'rtacha yoshi 4,1 yoshga keksayganligini kuzatish mumkin.

III. Aholining tabiiy harakati.


Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar kuzatilib, 2000 yilda Xorazm viloyati bo'yicha 32,1 ming nafar bola tug'ilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 24,0 promilleni, mazkur yilda 7,0 ming kishi vafot etgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 5,2 promilleni tashkil etgan bo'lib, aholining tabiiy o'sishi 25,1 ming kishiga, ya'ni 1000 aholiga nisbatan aholining tabiiy o'sish koeffitsienti 18,8 promilleni tashkil etgan.

Quyidagi jadvalda viloyat aholisining tabiiy harakati ko'rsatkichlari keltirilgan (3-jadval).


<i>3-jadval</i>						
Xorazm viloyati aholisining tabiiy harakati ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot						
(ming kishi)						
	2000y.		2010y.		2016y.	
	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan
Tug'ilganlar	32,1	24,0	36,0	22,7	39,2	22,2
O'lganlar	7,0	5,2	7,0	4,4	8,2	4,6
Aholining tabiiy o'sishi	25,1	18,8	29,0	18,3	31,0	17,6
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	10,6	7,9	15,3	9,7	14,9	8,5
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	0,7	0,5	0,9	0,6	1,2	0,7



6-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni (yilda; ming kishi)



7-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha o'lganlar soni (yilda; ming kishi)




8-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha aholisining tabiiy o'sishi (yilda; ming kishi)

1. Tug'ilganlar soni.

Xorazm viloyati bo'yicha 2016 yilda 39,2 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 22,2 promilleni tashkil etgan.

Xorazm viloyati 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 2000-2010 yillarda 24,0-22,7 promilleni, 2010-2016 yillarda esa 22,7-22,2 promilleni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari 2000 yillarda fertil yoshdagi (15-49 yosh) 1 ayol hayoti davomida tugqan bolalar soni, ya'ni tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,66 ni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda pasayish tendentsiyasi kuzatildi va 2016 yilda bu ko'rsatkich 2,38 ni tashkil etdi (9-rasm).



9-rasm Xorazm viloyati bo'yicha tug'ilishning yig'indi koeffitsienti (15-49 yoshli ayollarning hayoti davomida tugqan bolalari soni)


2. O'lganlar soni.

Xorazm viloyati 2016 yilda 8,2 ming kishining vafot etganligi qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,6 promilleni tashkil etgan.

Xorazm viloyati 2000 yilda 7,0 ming kishi, 2010 yilda 7,0 ming kishi, vafot etgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 5,2 promille, 4,4 promilleni tashkil etgan.

Xorazm viloyati 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 2000-2010 yillarda 5,2-4,4 promilleni, 2010-2016 yillarda 4,4-4,6 promilleni tashkil etmoqda.


Xorazm viloyati onalar o'limi ko'rsatkichi ham pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, 100 000 tug'ilgan bolaga nisbatan 2000 yilda onalar o'limi koeffitsienti 24,9 ni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 41,5 ni, 2010 yilda 30,6 ni va 2016 yilda esa 17,9 ni tashkil etdi (10-rasm).



10-rasm. **Xorazm viloyati bo'yicha onalar o'limi ko'rsatkichi**
(100 000 tug'ilgan bolaga nisbatan)

Xorazm viloyati 2016 yilda bir yoshgacha o'lgan bolalar soni 571 nafar bolani tashkil etib, 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsienti 14,6 promilleni tashkil etgan.

Xorazm viloyati 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsienti 2000 yilda 24,6 promilleni, 2005 yilda 16,3 promilleni, 2010 yilda 12,0 promilleni tashkil etgan (11-rasm).




11-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha go'daklar va bolalar o'limi ko'rsatkichlari (1000 tug'ilgan bolaga nisbatan; promille)

Go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsienti 2016 yilda 1000 tug'ilganga nisbatan 14,6 ni tashkil etgan. Shuningdek, 2016 yilda besh yoshgacha o'lgan bolalar soni 707 nafarni tashkil etib, 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o'limi koeffitsienti 18,1 promilleni tashkil etgan.

Xorazm viloyati 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o'limi koeffitsienti 2000 yilda 37,9 promilleni, 2005 yilda 21,8 promilleni, 2010 yilda 15,8 promilleni, 2015 yilda 17,7 promilleni tashkil etgan.

3. Tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi.

Aholining yashash sifati ko'rsatkichlaridan biri bu tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi hisoblanadi. Xorazm viloyati 2016 yilda mazkur ko'rsatkich 72,8 yoshni (ayollarda – 74,6 yosh, erkaklarda – 70,9 yosh) tashkil etgan (12-rasm).




12-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi (yosh)

Tug`ilishda kutilgan umr davomiyligi ko`rsatkichi so`nggi yillarda o`shish tendentsiyasiga ega bo`lib, jumladan 2000 yilda ushbu ko`rsatkich 70,4 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2005 yilda 72,6 yoshni, 2010 yilda 72,6 yoshni tashkil etgan.

4. Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar.

Xorazm viloyati bo`yicha 2016 yilda 14,9 mingta nikoh qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,5 promilleni tashkil etgan (13-rasm).




13-rasm. Xorazm viloyati bo`yicha nikoh tuzish va nikohdan ajralish koeffitsientlari (1000 aholiga nisbatan; promille)

Xorazm viloyati 2000 yillarda birinchi marta nikoh qurgan qiz bolalarning o`rtacha yoshi 21,1 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2016 yilda bu ko`rsatkich 22,8 yoshni tashkil etdi, ya`ni 1,7 yoshga ko`paydi.

Xorazm viloyati 2000 yillarda birinchi marta nikoh qurgan o`g`il bolalarning o`rtacha yoshi 23,2 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2016 yilda ushbu ko`rsatkich 25,0 yoshni tashkil etdi, ya`ni 1,8 yoshga ko`paydi (14-rasm).

Xorazm viloyati tumanlari bo`yicha aholi zichligi
(2017 yil 1 yanvar holatida; 1kv.kmga to`g`ri keladigan aholi soni)



15-rasm. Xorazm viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi